
**METHODS OF IMPROVING PHYSICS TEACHING IN GENERAL SECONDARY
SCHOOL**

Ximmatova Jannatoy Kuchmurotovna

Syrdarya regional center for retraining and advanced training of public educators Senior teacher of the
department of "Methods of exact and natural sciences"

ABSTRACT

This article deals with the concept of preparing students for social work and knowing the scientific basis of modern production.

Keywords: school, physics, mathematics skills, primary school children, teaching methods

INTRODUCTION

Maktabda o'qitish jarayonini takomillashtirishning muhim vazifalari ta'lim to'g'risidagi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy» dasturida bu o'z ifodasini topgan. Fizika o'qitish uslubining metodologiyasi bu darslarning tuzilishi, shakllari va tashkil etish usullari, fizika o'qitish nazariyasini rivojlanish qonunlari va uning amaliyotga tadbiq etish haqidagi ta'limotidir.

Bu ta'limotning tekshirish uslublariga quyidagilar kiradi:

- Umumiy o'rta ta'limning umumiy masalalari va ularni hal etishda fizika kursining roli.
- Ilg'or pedagogik texnologiyalarni o'rganish va umumlashtirish
- Fizik ta'lim va pedagogik amaliyot masalalarini qiyosiy tahlili
- Fizika o'qitish tarixini tahlil qilish shu asosida fizika uslubiyatini rivojlantirish qonunlarini aniqlash
- Darsliklarni, qo'llanmalarni maktab o'quvchilarining bilimlarini tekshirish, natijalarini tahlil qilish, fizika o'qitish uslublarining rivojlanishining obyektiv qonuniyatlarini aniqlash.
- gipotezalar qo'yish va ularni eksperimental tekshirish. Umumiy o'rta ta'lim DTS fizika kursini o'qitishda quyidagi vazifalar alohida takidlab o'tilgan.
- O'quvchilarni fizik hodisalar tushunchalar, kattaliklar, modellar, qonunlar, o'lchamlar, fizikaning amaldagi tadbirlari, olamning fizik manzarasiga oid bilimlar bilan tanishtirish
- fizikadan masalalarni mustaqil yechish fizik hodisalarni kuzatish va ularni tahlil qila bilishni shakllantirish.

- Fizika kursiga oid asbob va uskunalardan foydalanish, malakasini shakllantirish.

- O'quvchilarni fan- texnika taraqqiyoti fizik qonuniyatlarning amalda qo'llanilishi bilan tanishish.

Ta'lim tizimini ijtimoiy hayot bilan bog'lash, bu bilan o'quvchilarni ongli ravishda kasbga yo'naltirish.

Fizika darsini o'qitish uslubini takomillashtirishning manbai bo'lib ilg'or ish tajribalarini umumlashtirish bo'lib hisoblanadi.

Fizika kursi maktab o'quvchilarida ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol tutadi ya'ni nazariy xulosalarini eksperimental tekshirish va ularni amalda qo'llash. Bu borada dars jarayonlarini ishlab chiqarish bilan bog'lab olib borish muhim ahamiyat kasb etadi, ya'ni ishlab chiqarish korxonasi va muassasalarida ekskursiyalar tashkil qilish zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish

O'qitish uslublarini takomillashtirish o'quvchilarni fizikadan olgan bilimlarining sifatini oshiribgina qolmasdan, balki ijtimoiy mehnatga bo'lgan qiziqishini shakllantirishga yordam beradi.

CONCLUSION

Maktab fizika kursi politexnik mazmunini takomillashtirish va o'quvchilarni mehnatga tayyorlashning muhim vositalari amaliy fizika masalalarini o'rganish hisoblanadi. Bularga fizik asboblarning ishlash prinsiplari,

mashina va energetik generatorlari ishlashining fizik asoslari materiallarga qarab ularning xossalarini tushintirish xalk xo'jaligidagi turli sohalarda fizik xodisalarning qo'llanilishi kiradi. Bu jarayonlarni sistemalashtirishda umumlashtiruvchi darslarning ahamiyati katta.

REFERENCES

1. P.Q.Habibullayev, A.Boydedayev, A.D.Bahromov. Fizika: umumiy o'rta ta'lim maktablari 7-sinfi uchun darslik. — T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2017.
2. P. Habibullayev va boshqalar. Fizika: umumiy o'rta ta'lim maktablari 8-sinfi uchun darslik. — T.: "O'qituvchi", 2019.